



## ARTERIAL GIPERTENZIYA BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA SURUNKALI BUYRAK KASALLIGI RIVOJLANISHINING XAVF OMILLARI

Eshmuratov S.E., Abduxakimova N.N.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O'zbekiston

**Tadqiqotning maqsadi..** Surunkali buyrak kasalligi (SBK) aholining 10% ta'sir qilishi mumkin bo'lgan jiddiy sog'lijni saqlash muammosidir. Ushbu muammo kasallik va o'limningyuqori darajasi bilan bog'liq va sog'lijni saqlash tizimi resurslarining katta xarajatlarini talab qiladi. Tadqiqotning maqsadi arterial gipertensiya (AG) bilan og'rigan bemorlarda surunkali buyrak kasalligi rivojlanishining xavf omillarini tahlil qilish.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** 50 kishi tekshirildi, AG bilan bemorlarni barchasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasida statsionar sharoitda davolanib kelgan bemorlar edi. Tekshirilganlarning o'rtacha yoshi  $42 = 2,5$  yoshni tashkil etdi. Barcha bemorlarga SBK rivojlanish xavfi omillarini tahlil qilish uchun so'rovnomalar o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bemorlarning 62% ateroskleroz, 74% hollarda yurak etishmovchiligi, 35% bemorlarda qandli diabet, 71% semirib ketish, 60% hollarda giperxolisterinemiya, 78% tamaki chekish, 18% hollarda spirtli ichimliklarni suiste'mol qilish, 14% hollarda og'riq qoldiruvchi vositalarni suiiste'mol qilish (o'z – o'zini davolash) aniqlangan, harakatsiz turmush tarzilik-bemorlarning 36%, erkak jinsi – 61%, irsiyat – bemorlarning 16%.

**Xulosa.** Shunday qilib, AG bilan og'rigan bemorlarda SBK rivojlanishining eng ko'p uchraydigan xavf omillari yurak yetishmovchiligi va metabolik kasalliklar (semirish, giperkolesterolemiya), shuningdek, erkak jinsi va tamaki chekish ustunlik qiladi. Bemorlarning ushu toifasi bilan SBK rivojlanishining xavf omillari to'g'risida profilaktik suhabatlar o'tkazish, yomon odatlarsiz sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, terapeutik jismoniy madaniyatning foydalari haqida gapirish kerak.